Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

INKLYUZIV TA’LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA METODOLOGIK ASOSLARI

TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi”
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
XAMRAQULOV AKROMJON ADAXAMJON O‘G‘LI

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxsda mehr olish, doim e‘tiborda bo‘lish, atrof muhitdagi turli ta’sirlardan himoyalanish istagi, shaxsiylik faoliyatini ruhlantirish va mehr muhabat kabi ehtiyojlarga doimo asosiy ehtiyojlar qatoriga kirgan. Turli nogironligi bo‘lgan insonlar ham bundan hissiyotlarga ehtiyoj sezadilar. Bu kabi xususiyatlardan tashqari ularning o‘ziga xos xususiyatlari va alohida shaxsiy ehtiyojlari ham mavjud bo‘ladi.

Shaxsning psixologik xatti-harakati, qiziqishi, qobiliyati va boshqa bir qator jihatlari ham anamaliyalari o‘xshash bo‘lgan jihatlarda ham ularning bu kabi xususiyatlari farq qilishiga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz. Inklyuziv ta’limning barcha ishtirokchilarini psixologikpedagogik qo‘llab quvvatlashni samarali tashkil etish g‘oyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi [4]:

- inklyuziv ta’limni umumta’lim muassasalarining amaliy faoliyatida rejalashtirish va amalga oshirish uchun asos sifatida qo‘llab-quvvatlashning xilma xilligini hisobga olish;
- o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bosqichlarni aniqlash asosida qo‘llab-quvvatlash jarayonini yaratish: strategiyalar, taktikalar va texnikalar;
- yuqorida qayd etilgan ta’lim muassasalari uchun aniq texnologiyalar, mos uslub, yo‘l va vositalarni ishlab chiqish;
- ta’lim muassasalarining integratsion faoliyatini rivojlantirish sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirilib boriladi. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

Published: 05.06.2026

Cite this article: Xamraqulov Akromjon Adaxamjon o‘g‘li (2026). Inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik va metodologik asoslari. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/889

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

to‘g‘risida” [1], 2020- yil 6- noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022- yil 28- yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020- yil 13- oktyabrdagi PQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 12- oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshыa xujjatlarda kadrlar masalasi, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minlash vazifalari belgilab berilgan [2].

Inklyuziv ta’limni oiladan maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o‘zgarayotgani sezilarli darajada ko‘rinmoqda. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta’lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi.

Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko‘rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo‘ymaydi. Ular olgan ko‘nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo‘lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta’lim strategiyasi o‘qishning uzluksiz va muttasilligini ta’minlaydi. Oila – bolalar bog‘chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta’minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta’lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan keltirilgan tahlillardan kelib chiqib umumta’lim maktablarni birgalikdagi–inklyuziv ta’limga tayyorlash:

- Maxsus infrastruktura yaratish; O‘zbeskistonda maxsus ta’lim sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda: - yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va ko‘p qirrali ta’lim tizimini yaratish;

- mahalliy va mintaqaviy miqyosda maxsus ta’limning tobora oshib borayotgan ahamiyati asosida ta’lim boshqaruvini markazlashtirish; yordamga muhtoj bolalarga yoshlikdan toshhis qo‘yish va kasalpiklarni aniqlash uchun sharoit yaratish;

- milliy ta’lim standartlari asosida yordamga muhtoj bolalarga mo‘ljallangon o‘quv qo‘llanmalar sifatini yaxshilash;

ta’pim muassasalarining moddiy-texnika bozasini mustahkamlash;

- nogiron bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish;

- ko‘zi ojiz bolalar uchun mo‘ljallangan turli kitoblar, metodologik adabiyotlarni chop ztish;

- nogiron bolalarni maxsus aravachalar, eshitish moslamalari, ko‘zoynaklar, sport anjomlari, ish asbob-uskunalari, kanselyariya mollari, maxsus mebellar va tibbiy uskunalar bilan ta’minlash; - maxsus talim sohasida kadrlar tayyorlash.

Hozirgi kunda qator ekologik ijtimoiy va boshqa sabablarga ko‘ra, shuningdeq homiladorlikdan keyingi patologik asoratlar natijasida bola rivojlanishi va birinchi navbatda, uning ongi, atrof-muhit tahlili holda faoliyatini nazorat qilish va boshqarish funksiyalarining rivojlanish masalasini o‘rganish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. M.Tilakova. Inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik va metodologik asoslari. “Ta’limda kreativ yondashuvning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2025-yil, 24-26-aprel.

4. Inklyuziv umumta’lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta’lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7- 10-iyun.

5. Д.З.Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . - Казань, 2013.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —